

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

## HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA JALB QILINGAN XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Asoyeva Shirinul Rustamovna – magistr\*

\*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

**Anotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotiga jalgan qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan foydalanishning samaradorligini baholashning tahlil qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ma'lumotlarni to'plash, natijalarni tahlil qilish va hududiy rivojlanishda xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar.** Xorijiy investitsiya, kredit, samaradorlik, baholash, hududlar, loyiham, iqtisodiyot, tahlil.

### EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF USE OF FOREIGN INVESTMENT AND CREDITS INVOLVED IN THE REGIONAL ECONOMY

**Annotation.** This article includes a comprehensive approach aimed at analyzing the effectiveness of the use of foreign investments and loans involved in the economy of regions in Uzbekistan. Also, proposals for increasing the efficiency of foreign investments in regional development are presented.

**Key words.** Foreign investment, credit, efficiency, evaluation, regions, projects, economy, analysis.

Xorijiy investitsiyalar - daromad olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga xorijiy investorlar tomonidan kiritiladigan barcha turdag'i mulkiy va intellektual boyliklar majmuasidir. Xorijiy investorlar sifatida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar qatnashishi mumkin. Xorijiy investitsiyalarning bevosita, portfel va boshqa turlari mavjud. Bevosita xorijiy investitsiyalar xalqaro investitsiya faoliyatining muhim toifasi bo'lib, bir mamlakat xo'jalik yuritish birligining boshqa mamlakatdagi korxonaga barqaror ta'sir o'tkazishga intilishini o'zida aks ettiradi. Barqaror ta'sir o'tkazish deganda bevosita investor va ko'rsatilgan korxona o'rtaida uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, shuningdek, ushu korxonani boshqarishda investoring sezilarli roli tushuniladi. Portfel xorijiy investitsiyalar deganda investitsiyalarning aktsiyalarga, boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritilishi tushuniladi. Qimmatli qog'ozlar jumlasiga aktsiyalardan tashqari obligatsiyalar, bonlar, veksellar, depozit sertifikatlari, bank aktseptlari va qarz yozilmalari kiradi. Bevosita va portfel investitsiyalarni bir-biridan ajratish uchun

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5


amaliyotda quyidagi mezondan foydalilanadi: agar investor 10 va undan ortiq foiz oddiy aktsiyalarga ega bo'lsa, bunday investitsiyalar bevosita investitsiyalar hisoblanadi. Boshqa xorijiy investitsiyalarga bevosita va portfel investitsiyalar jumlasiga kirmaydigan investitsiya turlari kiradi. Masalan, savdo kreditlari, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olinadigan kreditlar, bank qo'yilmalari va boshqalar [1].

Iqtisodiyot va moliya vazirligi har yili Investitsiya dasturini shakllantirishda uning manzilli qismiga Hukumat nomidan yoki O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihibarini, shuningdek, belgilangan tartibda loyiha oldi hujatlari ishlab chiqilgan va xorijiy investor va kreditorlar bilan loyihibarini moliyalashtirish bo'yicha bitimlar tuzilgan, investitsiya takliflarini kiritadi. Hukumat nomidan yoki O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida jalb qilingan, kreditlar va qarzlar hisobidan moliyalashtiriladigan hamda davlat budjeti, tashabbuskorlarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladigan loyihibar bo'yicha har chorakda o'zlashtirilgan qarz mablag'lari summasi, hisoblangan foizlar va komissiyalar, hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlar bo'yicha kreditlarni o'z vaqtida so'ndirish, komissiya va foizlarni to'lashni ta'minlovchi to'plangan mablag'lar miqdori to'g'risida shuningdek, qabul qilingan boshqa majburiyatlarning bitimlarda ko'rsatilgan muddatlarga muvofiq bajarilishi haqida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga axborot taqdim etadi [2].

Rivojlanayotgan jahon iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hududiy rivojlanishni jadallashtirishdagi roli tobora ortib bormoqda. Katta iqtisodiy o'zgarishlar chorrahasida turgan O'zbekiston kabi davlatlar uchun xorijiy investitsiyalar samaradorligini optimallashtirish nafaqat strategik, balki barqaror o'sish zarurati hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvi, boy madaniy merosi va boy tabiiy resurslariga ega O'zbekiston xorijiy investitsiyalar uchun jozibali mamlakat hisoblanadi. 2016-yilda yirik iqtisodiy islohotlar boshlanganidan buyon mamlakatda ochiqroq iqtisodiy siyosat yuritish, valyuta kursini liberallashtirish va ishbilarmonlik muhi-tini yaxshilash natijasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'paydi. Biroq ushbu investitsiyalarning uning hududlari bo'ylab taqsimlanishi va samaradorligi notekis bo'lib, xorijiy kapitalning mintaqaviy rivojlanishga samarali hissa qo'shishini ta'minlash uchun optimal strategiyalar haqida savollar tug'dirdi. Bu masalaning ahamiyati O'zbekiston mintaqalari bo'yicha iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosiblik bilan ta'kidlanadi, ba'zi hududlar sarmoya va innovatsiya markazlari sifatida gullab-yashnamoqda, boshqalari esa ishsizlik va rivojlanmaganlik bilan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

kurashib, ortda qolmoqda. Shu bois, xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish ushbu nomutanosibliklarni bartaraf etishda, iqtisodiy ochiqlik afzalliklaridan butun mamlakat bo‘ylab adolatliroq taqsimlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. [3].



Hududlar kesimida jalg qilingan xorijiy investitsiyalar tahlili shuni ko’rsatmoqdagi 2024-yilning I-choragida eng ko’p xorijiy investitsiyalar jalg qilingan hududlar bular Namangan, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlariga to’g’ri kelmoqda. Eng kam investitsiya jalg qilingan hududlarga esa Sirdaryo, Farg’ona viloyatlari bo’lganini ko’rshimiz mumkin [4 ]

**Xulosa** qilib aytganda, O’zbekistonning xorijiy sarmoyalarni jalg etish orqali mintaqaviy rivojlanish yo‘li ham murakkab, ham istiqbolli. O’zbekiston ilg’or xalqaro tajribalarni qo’llash va rivojlanishning strategik yo‘nalish-lariga e’tibor qaratish orqali xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishi, muvozanatli va barqaror o’sishga erishishi mumkin. Bu yo‘l nafaqat siyosiy islohotlarni, balki O’zbekiston mintaqalari salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularni Markaziy Osiyo markazida o’sish va innovatsiyalarning jonli dvigateliga aylantirish uchun umumiy qarash va sa’y-harakatlarni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imomov N.N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.(O‘quv qo‘llanma) —T-TDIU, 2011.,44-b.
2. Shagazatov O.B. Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali” 72-75 betlar. 2024-yil, fevral. No 2-son.
3. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.
4. Нуриллаев, Р., & Нуриллаев, Ш. (2023). Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.
5. Nurillaev, R. Y. (2024). Ensuring food safety in a changing world: challenges and solutions.
6. Yarashevich Nurillayev, J., Omonovich Tursunov, B., & Sherzod ogli Raimberdiyev, S. (2021, December). Evaluation of The Efficiency of Commercial Banks in Financing Investment Projects. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 361-365).
7. Nurillaev, J. (2024, April). The Main Directions of Formation of The National Innovation System in The Conditions of Globalization. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 29-31).
8. <https://www.imv.uz/>
9. [https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika /investments](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments)